



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI TAYYORLASHDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (BT) yo'nalishi 1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15030266>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 10- Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 15- Mart 2025 yil

KEY WORDS

*kreativ fikrlash, oliy ta'lim,
pedagogik muammo, ta'lim
metodikasi, ijodiy yondashuv,
innovatsion ta'lim, tanqidiy
fikrlash, mustaqil o'rganish.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda ijodiy fikrlashga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash zarurati ortib borayotganligi ta'kidlanadi. Tadqiqot davomida kreativ fikrlash tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rnini, shuningdek, ushbu ko'nikmani shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy dunyo shiddat bilan rivojlanar ekan, yangi kasblar paydo bo'lishi, mavjud mutaxassisliklarga qo'yilayotgan talablarning o'zgarishi ijodiy yondashuvga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Kreativ fikrlash insonning muammolarini hal qilish, yangilik yaratish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilib, samarali yondashuvlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'zaro ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalar mustaqil ishi mexanizmlarini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart -sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020 yil 23 sentabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ 637-sonli qonunida ham ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning turli shakllarda ta'lim olishi (ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (masofaviy, sirtqi, kechki); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ishi; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash) belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, yuqoridagilarni inobatga olib mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish, mustaqil o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOQT METODOLOGIYASI

Kreativlik – soʻzi inglizcha «create||» soʻzidan olingan boʻlib, yaratish degan maʼnoni bildiradi. Kreativlik bu noodatiy fikr yuritish, yangi gʻoyalarni oʻylab topishdir. Kreativlik yangilikni ixtiro qilish, anʼanaviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishni bildiradi.

Kreativ - ijodkorlikda oʻqituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan yangi nazariyalarni yaratadi, oʻz fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli oʻqituvchilargina bilimga erishishi mumkin.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos boʻlgan, lekin mavjud tarbiya, taʼlim va ijtimoiy amaliyot tizimi taʼsirida koʻpchilik tomonidan yoʻqolgan ijodiy yoʻnalishdir.

L.S.Vigotskiyning fikriga koʻra, "atrofimizdagi kundalik hayotda ijod mavjudlikning zaruriy shartidir" , L.M.Popov esa ijodkorlikning boshlanishini tirik materiyaning aks ettirish qobiliyatidan koʻradi va A.S. Makarenko ijodiy ish olib boruvchi yaxshi muvofiqlashtirilgan pedagogik jamoaga alohida ahamiyat berib, bunday jamoada hatto tajribasiz oʻqituvchi ham koʻp yutuqlarga erishishi mumkinligini taʼkidladi va agar oʻqituvchilar yaxlit ijodiy jamoaga birlashtirilmasa, hatto tajribali va ijodkor oʻqituvchi ham ishda yuqori natijalarga erisha olmasligi mumkinligini aytib oʻtadi. Kreativlik otasi nomi bilan mashhur Pol Torrans toʻrtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ koʻnikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

Ravonlik. Koʻplab gʻoyalarni oʻylab topish koʻnikmasi koʻp degan soʻzga asoslanadi.

Moslashuvchanlik. Turli gʻoyalarni oʻylab topish koʻnikmasi oʻzgartirish degan soʻzga asoslanadi.

Oʻziga xoslik. Boshqalarga oʻxshamagan, ajralib turuvchi gʻoyani oʻylabtopish koʻnikmasi noyob degan soʻzga asoslanadi.

Yaratuvchanlik. Gʻoyalarni kengaytirish koʻnikmasi qoʻshish degan soʻzga asoslanadi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar qoʻllanildi:

1. Nazariy tahlil – kreativ fikrlashning taʼlim jarayonidagi oʻrni va ahamiyatini aniqlash maqsadida pedagogik va psixologik adabiyotlar oʻrganildi.

2. Empirik tadqiqot – oliy taʼlim muassasalarida kreativ fikrlashni shakllantirish boʻyicha oʻqituvchilar va talabalar oʻrtasida soʻrovnomalar va intervyular oʻtkazildi.

3. Taqqoslash va tahlil – xalqaro tajribalar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishga oid ilgʻor usullar oʻrganilib, ularning samaradorligi baholandi.[3; 58-b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kreativ fikrlash koʻnikmasini shakllantirishda quyidagi asosiy omillar muhimligini koʻrsatdi:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – loyiha asosida oʻqitish, muammoli taʼlim va interfaol usullar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Tanqidiy fikrlash va mustaqil oʻrganish – kreativ fikrlashni shakllantirish uchun talabalarga erkin fikr yuritish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish lozim.

3. Amaliy mashgʻulotlar va tajribalar – nazariy bilimlarni real loyihalar va laboratoriya ishlariga tatbiq etish orqali talabalar ijodiy tafakkur qilishga oʻrgatiladi.

4. Muallimlarning roli – pedagoglarning innovatsion metodlarni qoʻllash koʻnikmalarini oshirish va ularni kreativ yondashuvga tayyorlash zarurati mavjud.

Oliy ta'limda kreativ fikrlashni shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim uslublari hozirgi zamon talablariga javob bera olmaydi. Innovatsion yondashuvlar, jumladan, dizayn o'ylash (design thinking), gamifikatsiya va kollaborativ o'qitish usullari talabalar ongida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim tizimida muammolarni hal qilishga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish lozim.

Oliy ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

"Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi". Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash -insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir». Shunga ko'ra, so'nggi yillarda o'ziga xos dolzarblik kasb etayotgan mustaqil ta'lim asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin-ijodiy ta'lim muhitini shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish orqali jarayon samaradaorligini oshirish masalasi tadqiqotimizning asosini tashkil etadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Talaba ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, masala yechimini mustaqil topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Talaba o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Talaba shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, his-tuyg'ulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud.

Birinchi yo'l - kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, talabalar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratadilar. Zero, savol tarkibidagi «ta'riflab bering» tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra «mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting» deyish bilan teng.

Ikkinchi yo'l - amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar

talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadilar. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, u talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Uchinchi yo'l - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, talabalara "major va minor tovushlari tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni topish" topshirig'ini bajarar ekanlar, odamning qon aylanishi tizimi bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladilar. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog talabalarga Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. Talabalar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqasalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.[4; 146-b]

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak muhandis talabalarda kreativlikni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri ularni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Pedagoglar tomonidan ishlab chiqilayotgan topshiriq va vazifalarni yaratishda kreativ yondashib, talabalarning tanlangan mutaxassisliklari yuzasidan o'quv materiallarining g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil tarzda bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikligini inobatga olish zarur. Bundan tashqari talabalarga berilayotgan topshiriqlar ularning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy va aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi lozim. Kreativ fikrlash bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy o'qitish metodlaridan samarali foydalanish, talabalarning mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish va o'quv jarayonini interaktiv qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Sattorov, A. Toshxonov. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Uslubiy ko'rsatma. Namangan 2019.
2. Muslimov N.A, Qo'ysinov O.A Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya -T, "Fan" 2009

3. Hojkarimova , G. (2023). O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(7), <https://inacademy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/18654>
4. Usmonboeva, A.To'raev, Kreativ pedagogika asoslari. O'quv-uslubiy majmua. - TDPU, 2016. 146-b
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.
6. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma.– T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.
7. М. А. Тилакова О. Э. Эшмурадов. Креатив кобилиятларни ривожлантириш механизмлари« SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 / Volume: 1, ISSUE: 6
8. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.12 (2020): 132-136.
9. Болтаева, Зулфия Зарифовна, and Хусниддин Купайсинович Хомидов. "ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ." VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.
10. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "COOPERATION BETWEEN STATE AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE ACTIVITIES." Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
11. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
12. Купайсинович, Хомидов Хусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 561.
13. Homidov, H. K. "TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI." Экономика и социум 5-1 (108) (2023): 83-87.1. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиалаштириш ва режалаштириш. - Т. 2010 й, 149-б.
14. Qodirov, F. , Qilichova, B., & Ziyotova, M. . (2024). NOAN'ANAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, In academy 23(50).3(10), 28–33,20241. Omonovich, Uralov Eliboy, and Ergasheva Husniya Mirzahid. "Science Teaching Process for Primary Students." International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). Vol. 3. 2024
15. Homidov Husniddin Kupaysinovich, Ergasheva Husniya Mirzoxid qizi."Theoretical Foundations of Working with Educational Information Competencies" Journal of Preschool Education and Psychology Vol.1 No. 2 .2024

16. Ergasheva, Husniya. "Investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligi." Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar, vol. 23, no. 50, Innovative Academy, 18 Oct. 2024, pp. 64-69.
17. Xolmurodova, Adelinabonu Bahodir qizi. "Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning boshlang'ich ta'limdagi o'rni va dolzarbligi." Modern Problems in Education and Their Scientific Solutions. 23 Dec. 2024, European Science International Conference.
18. Shoyqulova, Dilbar Dilshod qizi. "Investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligi." International Journal of Scientific Researchers, vol. 9, no. 1, 2024,
19. Ochilova, Go'zal Aralovna, va Zilola Yoqub qizi Mahmudova. "ILMIY TEXNIKA SALOHİYATI VA UNING TARKIBIY QISMLARI." International Journal of Scientific Researchers, jild 8, №2, 2024.
20. Raimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "TIL-ALOQA VOSITASI." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 128-130.
21. R.D. Abdinabiyevna. International conference on modern science and scientific studies 1 (2), 124-129 Assirtiv pozitsiyani rivojlantirish jarayonining psixologik ,pedagpgik ,didaktik jihatlari
22. Anvarovna, Umarova Dilafuz. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
23. Umarova, Dilafuz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.
24. Nozima, Asadova. "SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH." World scientific research journal 25.1 (2024): 179-186.
25. Ochilova, Fayyoza. "TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
26. Ochilova, Fayyoza Mansurovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 297-306.